

**CHANGCHILAR ANSAMBLI UCHUN MOSLASHTIRILGAN  
I.BOKKERINI “MENUET” ASARINING IJRO TAXLILI**

*Samijonova Ruhshona*

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Cholg'u ijrochiligi” fakulteti “Xalq cholg'ulari” yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Axadjon Mamadaliyev*

*Ilmiy raxbar: O'zDK “Xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedrasi dotsenti,  
Turon fanlar akademiyasi faxriy professori*

*Xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini repertuarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning rivojlanish jarayoni ayni paytda kompozitorlik ijodiyotining rivojlanishi hamdir[1]. Shulardan kelib chiqib, biz ushbu asarni taxlilini qilishga jazm etdik.*

Menuet (fr.menuet, menu-kichik, mayda) – tekis harakatlar bilan tekis ijro etiladigan qadimiy fransuz xalq raqsi. Takt o'lchovi uch hissali. Menuet cholg'u musiqasida qo'llanila boshlagandan so'ng jonli xarakter va tez sur'atga ko'chadi.

Asar murakkab uch qismli shaklda yozilgan bo'lib, lya-major tonalligida yozilgan. Uning markazi hisoblangan trio<sup>1</sup> esa, re-majorda yangraydi[2].

Birinchi qismning za takt (takt oldi) bilan boshlanadigan yorqin xarakterdagi mavzusi *p* dinamikasida nozik holatda ijro etiladi. Unga jo'r bo'luvchi qolgan ovozlari ham fakturani xuddi shu dinamikada aniq namoyon eta olishi lozim. (Boshlanishidagi 4 takt)

<sup>1</sup> Trio (it.trio, tre - uch) – 1.Uch ijrochidan tarkib topgan ansambl, vokal musiqasida esa terset deyiladi. 2. Uch ijrochi uchun yozilgan maxsus asar. 3. Uch qismli shaklda yozilgan pesalarning o'rta qismi, masalan, marsh, vals, menuet, skerso va boshqalar.

5-taktdan kirib kelgan yangi dinamik bo'yoqlarni esa e'tibor bilan ijro etib, taktning forshlagli uchinchi hissasi urg'ulariga alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, jumlaning yakunidagi dominanta tovushiga yumshoq tugallanishi ham muhim hisoblanadi. Ijro paytida jumlaning takrorini dinamikasi jihatidan farqli ravishda namoyon etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Musical score for measures 6-9. The score is written for four staves: Ch. 1 (Soprano), Ch. 2 (Alto), Ch. t. (Tenor), and Ch. b. (Bass). The key signature is two sharps (F# and C#). The music features various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. Dynamics are indicated by *mf* and *pp*. A trill is marked in the first staff at measure 8.

9-taktdan boshlangan (*mf*) jumlada asosan shtrixlar xilma-xilligiga ahamiyat berish kerak. Legato, stakkato va aksentlarning uyg'unlikda jaranglashi ijrochilardan yanada ko'proq diqqat-e'tiborni talab etadi.

Musical score for measures 10-13. The score is written for four staves: Ch. 1 (Soprano), Ch. 2 (Alto), Ch. t. (Tenor), and Ch. b. (Bass). The key signature is two sharps (F# and C#). The music features various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. Dynamics are indicated by *mf*, *dim.*, and *pp*. A *sva* (sustained vibrato) marking is present in the Tenor part.

*pp* dinamikasi bilan takt oldi boshlanadigan mavzuning kichik rivojida fakturani (chang tenordagi o'n oltitaliklar) aniq va ravon gavdalantirish kerak. Bunda ijro paytida mayin tovushlar hosil qilish muhim hisoblanadi.

Trio - bosh mavzuga kontrast holda namoyon bo'lib, asosan dinamik bo'yoqlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Mavzuning ritmik ko'rinishiga ahamiyat berib, ya'ni sakkiztalik va o'n oltitalik cho'zimdagi notalarning ketma-ket ravon ijro etilishini ta'minlash kerak.

Trioning rivojidagi imitatsion harakatlar va kuchsiz hissalaridagi urg'uli tovushlar, non legatolar, dinamikaning o'sishi, asar dramaturgiyasining yanada kuchaytiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. A.Odilov. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. 1995 y.
2. A.Mamadaliyev. “Ansambl sinfi”. O‘quv-qo‘llanma. 2020 y.
3. I.Bokkerini “Menuet” asari klaviri.